



Xalq so'zi

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ●

2024-yil 4-iyul, № 133 (8756)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling.



SHHTNING OSTONA SAMMITI OLDIDAN SAMARALI MULOQOTLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-iyul kuni Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi va "ShHT plus" formatidagi uchrashuvda ishtirok etish uchun Ostona shahriga keldi.



Ostona xalqaro aeroportida oly martabali mehmonni Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Olijas Bektenov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Shu kuni Ostona shahrida tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning muzokaralar bo'lib o'tdi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari Xitoy Raisiga O'zbekistondagi ortga qaytmas islohotlarni qat'iy qo'llab-quvvatlayotgani hamda mamlakatlarimiz

ortasidagi do'stlik va har tomonlama strategik sherlik munosabatlarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratayotgani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Yetakchilar keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlikning barcha yo'nalishlarida ulkan yutuqlarga erishilganini ta'kidlidilar.

O'zbekiston Prezidentining joriy yil yanvar oyida Xitoya davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlar izchil amalga oshirilayotgani alohida mammuniyat bilan qayd etildi.

Hukumatlar, parlamentlar, tashqi siyosat va tarmoq idoralari o'rtaqidagi aloqalar sezilarini darajada faollashdi.

Yil yakuniga qadar Tashqi ishlar vazirlari strategik muloqotining ikkinchi yig'ilishini Toshkent shahrida o'tkazish rejalashtirilgan. Yaqin kunlarda Xitoy parlamentining yuqori darajadagi delegatsiyasining O'zbekistonga tashrifi kutilmoqda.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanmoqda.

O'tgan yili tovar ayriboshlash hajmi 14 milliard dollarga yetdi. Yaqin istiqbolda

bu ko'satkichni 20 milliard dollarga yetkazish imkoniyatlari qayd etildi.

Investitsiya loyihalarining joriy portfeli 50 milliard dollarдан oshgan. Shu yil boshidan buyon mamlakatimizda 3 milliard dollarдан ziyod Xitoy sarmoyasi o'zlashtirilib, 500 dan ortiq yangi qo'shma korxonalar tashkil etildi.

Infratuzilma, sanot kooperatsiyasi, qishloq xo'jaligi va "yashil" energetika sohalarida strategik hamkorlik dasturlarini qabul qilishni jadallashtirishga kelishib olindil.

Yaqinda Jizzax viloyatida O'zbekiston – Xitoy texnoparki ishga tushirilgani va mintaqamizda birinchi bo'lib "BYD" elektromobilari ishlab chiqarila boshlangani mammuniyat bilan qayd etildi.

Xitoyning yetakchi moliyaviy tuzilmalari bilan hamkorlik kengaymoqda. Xususan, "Ipak yo'l" jamg'armasi bilan investitsiya platformasi yaratildi. Xitoy Eksimbanki ko'magida poxtaxtimizda Olimpiya shaharchasi qurilishi yakunlanmoqda. Ushbu bankning Toshkent shahrida hududiy filiali ochilishi kutilmoqda.

Hududlararo almashinuvlar faollashgani yuqori bo'landi. Yil boshidan buyon mamlakatimizning barcha hududlari rahbarlari bir necha bor Xitoga tashrif buyurdi, Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni, Anxo, Szyansi, Szyanshi, Chjeszyan, Shandun, Shensi va Shanxay muzofotlari delegatsiyalari O'zbekistonda bo'ldi. Pekin, Urumchi va boshqa bir qator shaharlarda savdo uylari ochildi.

Kelgusi yilda ikkinchi Hududlar forumi o'tkazilishi belgilab olindi.

Prezidentimiz XXR Raisini kambag'allikka qarshi kurashish sohasida amalii hamkorlikni qo'llab-quvvatlayotganini alohida ta'kidladi. Bu muhim yo'nalishda tajriba almashish bo'yicha uzoq muddatli dastur qabul

qilish taklifi bildirildi.

"Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida transport bog'liqligini mustahkamlash va mintaqani rivojlantrishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'lini qurish bo'yicha amaliy ishlarni tez fursatda boshlash muhimligi ta'kidlandi.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molii dolzurb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. O'zbekiston tomonining "yagona Xitoy" siyosatini qo'llab-quvvatlash va "uch yovuz kuch" ga qarshi kurashish borasidagi pozitsiyasi o'zgarmas ekani tasdiqlandi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, "Markaziy Osyo – Xitoy" formati va boshqa xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalari doirasidagi dasturini qabul qilish muhim ekani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari XXR yetakchisiga ShHTga raisligi davrida katta muvaffaqiyatlar tiladi.

Turizm, ilm-fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash va xitoy tilini o'rganish sohalarida hamkorlikni kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Yaqinda Toshkentda Markaziy Osyojagi Konfutsiy institutlari forumi o'tadi. Mamlakatimizda XXR oly o'quyurtlari filiallarini ochish, Xitoyning professional ta'lim tizimi – "Lu Ban ustaxonasi"ni keng joriy etish rejalari belgilandi. Ikkinci Ta'lim forumini kelgusi yilda o'tkazish taklifi bildirildi.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston Prezidenti XXR Raisini mamlakatimizga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Uchrashuv har doimigidek o'zaro ishonch, ochiqlik va do'stilik ruhida o'tdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif bilan uchrashuv o'tkazdi.

O'zbekiston bilan Pokiston o'rtaqidagi strategik sherlik munosabatlarni, eng

avalo, savdo-iqtisodiyot, investitsiya va transport-kommunikatsiya sohalarini yanada rivojlantrishning dolzorb masalalari muhokama qilindi.

Turli darajalardagi muloqotlar faol davomi etayotgani mammuniyat bilan qayd etildi. O'zaro savdo va yuk tashish hajmi, o'shma korxonalar soni ortmoqda.

Davlatimiz rahbari Imtiyozli savdo to'qrisidagi bitim doirasida tovar ayriboshlash hajmini oshirish uchun qulay sharoitlarni shakkantirish borasidagi ishlarni davom ettirish muhimligini ta'kidladi.

Qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, farmasetvika, kimyo va boshqa tarmoqlarda loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi 2025-2026-yillarga mo'ljalangan Sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilish muhim ekani qayd etildi.

Joriy yilda Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishi, biznes forumi va sanoat ko'rgazmasini o'tkazishga kelishib olindi.

Transaf'g'on temir yo'lini qurish loyihasini amalga oshirishda birlgiligidagi sa'y-harakatlar zarurligi ta'kidlandi.

Mintaqaviy kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. ShHTning 4-iyul kuni bo'lib o'tadigan sammiti kun tartibidan tashkilot doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantrish hafoiyatini takomillashtirishning dolzorb masalalari o'rin olgan. Xalqaro va mintaqaviy hamkorlikning muhim jihatlari ham ko'rib chiqiladi.

Yig'ilish yakunida Ostona deklaratsiyasi hamda iqtisodiyot, xavfsizlik, ekologiya, energetika, turizm va boshqa ko'plab yo'nalishlarda sherlikni kengaytirish bo'yicha hujjatlar qabul qilinishi rejalashtirilgan.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

Qonunchilik palatasini tomonidan 2024-yil 23-aprelda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 18-mayda ma'qullangan

Ushbu Qonun bilan "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, ularga binoan "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha xizmatlar ko'shatishiga doir faoliyat litsenziyalanadigan faoliyatning alohida turi sifatida belgilamoqda hamda O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasiz mazkur sohadagi litsenziyalovchi vakolati organ sifatida belgilamoqda.

Bundan tashqari "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha faoliyatga litsenziya berganlik uchun to'lanadigan davlat boji stavkasi miqdorini belgilovchi qo'shimcha kiritilmoqda.

Ushbu Qonun "Umra" ziyoratini amalga oshiradigan fuqarolarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari to'laqoni himoya qilinishini ta'minlashga hamda bunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarning mas'uliyatini oshirishga xizmat qildi.

(Davomi 2-betda)

Senat Kengashida

ONALIK VA BOLALIK MUHOFAZASIDA QANDAY KAMCHILIKLAR BOR?

Oliy Majlis Senati Kengashi majlisida reproduktiv salomatlik, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati muhokama markazida bo'ldi.

Senatorlar, tegishli vazirlar va idoralar vakillari ishtirok etgan tadbirni Oliy Majlis Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Senat ishchi guruhni tomonidan reproduktiv salomatlik, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rganish natijalari tanqidiy ko'rib chiqidi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda mamlakat bo'yicha onalik va bolalikni muhofaza muassasalarida reja asosida shu yilning 5 oyi

qilish yo'nalishida 22,3 mingta o'ringa ega 230 ta tug'uruq muassasasi hamda 13,3 mingta o'ringa ega 245 ta pediatriya muassasasi samarali xizmat ko'sratib kelmoqda.

Joylardagi birlamchi tibbiy-sanitariya yordamda muassasalarida reja asosida shu yilning 5 oyi

3

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Nazorat-tahlil faoliyati deputatlar muhokamasida

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining kuni kecha bo'lib o'tgan navbatdagi majlisida mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga doir qator qonun loyihalari hamda parlamentning nazorat-tahlil faoliyatiga oid dolzorb masalalari ko'rib chiqildi.

Farzandlarimiz kamolotiga e'tibor – ustuvor vazifa

Majlisda deputatlar Maktabgacha va mabkab ta'limi vazirining birinchi o'rinosari – Maktabgacha ta'lim agentligi direktori A. Shinning "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherliklarni qo'llab-quvvatlash maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini malakali pedagog kadrlari bilan ta'minlash, zamонавий ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tibbiy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida" Qonunchilik

palatasining parlament so'roviga javobini ko'rib chiqidi.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan jami 33 942 ta bog'chaning 27 162 tasi nodavlat ta'lim tashkiloti hisoblanadi.

Parlament so'roviga berilgan javobda hozirda Davlat budgetidan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ish haqni xarajatlarini qoplash uchun subsidiyalar qonunchilikda belgilangan tartibda ajratilib kelinayotgani ma'lum qilingan.

3

O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha o'z majburiyatlarini samarali bajarmoqda

O'zbekiston tashqi siyosatida milliy manfaatlardan kelib chiqib, nafaqat xorijiy davlatlar, balki yirik xalqaro tashkilotlar bilan ham o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantrishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Aks sado

Keyingi yillarda O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'rtaqidagi aloqalar kuchayib borayotgani mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish va uning barqaror rivojanish maqsadlariga erishishdagi intilishlarini namoyon qilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidentining taklifiga binoan BMT Bosh kotibi Antoni Gutierrezning yurtimiza bu galgi tashrifi O'zbekistonga jahon hamjamatiyata yuksak ishonch va e'tirof mavjudligidan darak beradi. BMT Bosh kotibi davlatimiz rahbari

bilan uchrashuvda mamlakatimizga ilk bor 20 yil avval, ikkinchi marta esa Prezidentlik faoliyatiga endi kirishgan payt kelganligini ta'kidlab, Yurtboshimiz boshchiligidagi qilangan ishlardan hayratda ekanligini bildirdi.

O'zbekiston o'z fuqarolarining huquqlarini himoya qilish va ularning manfaatlari ta'minlash kabi qat'iy rivojanish yo'llidan sobiqdadamligi bilan borayotganini alohida ta'kidladi.

Shu o'rinda inson huquqlari sohasida, xususan, qynoq holatlarini bartaraf etish bo'yicha amalga

oshirilan muhim islohotlarga to'xtalib o'tish jozi.

Bilamizki, ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi huddida joylashgan hamda qynoq holatlarini eng ko'p kuzatilgan "Jasliq" uzoq yillardan buyon Markaziy Osyoning eng mudhish qamoqxonasi sifatida tilga olinib kelingandi. U uzoq yillardan buyon Markaziy Osyoning eng mudhish qamoqxonasi sifatida tilga olinib kelingandi. U uzoq yillardan buyon Markaziy Osyoning eng mudhish qamoqxonasi sifatida tilga olinib kelingandi. U uzoq yillardan buyon Markaziy Osyoning eng mudhish qamoqxonasi sifatida tilga olinib kelingandi.

buyon "Jasliq" qamoqxonasini yopishni tavsiya etib keldi. Nihoyat, Prezidentimizning

Maqsad – zamonaviy bilim va ko'nikmaga ega yoshlar safini kengaytirish

Prezidentimiz tashabbusiga ko'ra yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilib, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, orzu-intillishlari, qobiliyat va salohiyatini ro'yogda chiqarish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'tgan davrda yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha huquqiy baza mustahkamani, ular hayotiga bevosita taalluqli bo'lgan qonun, farmon va qarorlar qabul qilingani mamlakatimizda mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha o'ladijan barkamol shaxslarni tarbiyalashga zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Munosabat

Yangi tahrirdagi Bosh qomusimizda ham oila, bolalar va yoshlar uchun alohida bob ajratildi. Davlat va jamiyat yoshshorda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sadiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanshini, vatangparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakkantirish to'g'risida qurilishni belgilandi.

Bundan tashqari, yoshlarning ta'lif olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish – davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida o'z aksini topdi. Davlat shu orqali o'z zimmasiga muhim majburiyatlarni olmoqda.

Kelajigimiz bonyodkorlari bilan ishshashing mutlaqo yangi tizimi – "yoshlar daftari" va yoshlar dasturlari hayotga tatbiq ettilyapti. Mazkur tizim asosida olib borilgan amaly yishlar natijasida "yoshlar daftari"ga kirgan minglab yigit-qizlarning muammolarini hal etilayot, kam ta'minlagan ollalar farzandlari bo'lgan talabalarning to'lov-shartnoma puli to'lab berilmoga, ishsiz yoshlarning bandligi ta'minlayapti.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining yosh avlodga e'tibori va g'amxo'rligi tufayli sohada



Sirojiddin VOHIDOV o'lgan surʼat.

mutlaqo yangi tizim yaratilib, barcha darajadagi rahbarlarning yoshlar bilan ishlash tizimi tubdan o'zgardi.

Buni birgina Farg'onan viloyati misolida ham ko'rish mumkin. Jumladan, shu yilning o'tgan davrida "yoshlar daftari"ga kiritilgan yigit-qizlarning 6 ming 674 nafariga iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan ko'mak ko'satilgan. Yosolar muammolarini tizimli hal etish uchun "yoshlar daftari" jamg'armalarida qariyb 15,3 mld. so'm mablag' shakkantirilib, ehtiyojmand deb topilgan 6 ming 589 nafar yoshga 10,7 mld. so'mlik moddiy qo'llab-quvvatlash uchun mablag' sarflangan. Yosolar

yer maydonlariga 8 turdag'i viloyat iqlimiga mos ekinlar ekishiga ko'maklashilgan.

E'tiborlisi, "Ibrat Academy" mobil ilovasi orqali 68 ming 916 nafar yoshning til or'ganishiga ko'maklashilgib, ularning 580 nafari xorijiy tillar bo'yicha daraja sertifikatini qo'lga kiritigan. Xalqaro imtihon tizimida yugori ball to'plagan 519 nafar yoshning 903,5 mln. so'm miqdorida imtihon xarajatlari qoplab berilgan.

Bu kabi amaly misollarni ko'plab keltirish mumkin. Yana bir muhim masala. Oliy

tadbirkorligini rivojlantirish va startap loyihalarini moliyalashtirish maqsadida 3 ming 255 nafar yoshga 56,9 mld. so'mlik imtiyozli kreditlar berilgan.

Bundan tashqari, "mahalla yettiligi"ning tasviyasiga asosan dehqonchilik qilish istagi 17 ming 409 nafar yoshga auksion orqali 30 yil muddatga (o'rtaча 20 soxit) 4 489 hektar yer maydonlari arjatib berilgan. Yoshlarga arjatilgan

Majlis Qonunchilik palatasida ham yoshlar bilan mulogot qilish, ularning muammollarini eshitish borasida yangi tizim yaratildi. Jumladan, Prezidentimiz tashabbusi bilan Oliy Majlis palatalari huzurida faol va tashabbuskor yoshlardan iborat Yoshol parlamenti tashkil qilindi. Shuningdek, Qonunchilik palatasida 7 nafar yosh deputatdan iborat tarkibda Yoshol masalalari bo'yicha komissiya tuzildi.

Bugungi kunda mazkur komissiya va Yoshol parlamenti norma ijodkorligi jarayoniga yoshlarni keng jalb etish va qabul qilinayotgan qonunlarni yosh avlod orasida keng targ'ib qilish orqali ularning parlament hayotiga daxldorligini oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Ayni chog'da yoshlarni quy piyalata majlislarida, fraksiya yig'ilishlarida ham ishtiroy etib kelayotir. Bu, o'z navbatida, yoshlarga oid davlat siyosati sohasida olib borilayotgan islohotlarda Qonunchilik palatasining rolini yanada oshirishga, yoshlarning jamiatiga va davlat hayotidagi ishtiroyini kengaytirishga, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy faoliyigini qo'llab-quvvatlashga, zamonaviy dunyoga qash, bilim va ko'nikmaga ega yoshlarning bilimi ni rivojlanishiga xizmat qilyapti.

Shu o'rinda Prezidentimiz tashabbusi bilan 30-iyun – Yosholar kuni har yili mamlakatimizda keng nishonlanib kelinayotganini Yoshlar tarbiyasi va ongiga tahdидlar tobora kuchayib borayotgan bugungi globalashuv davrida navqiron avlodning qiziqishlariga befard bo'limasdani, ularni o'ylantirayotgan muammolarga to'g'ri va maqbul yechimlarni izlab topish biz, parlament a'zolaringin ham ustuvor vazifasi hisoblanishi kerak. Zero, bugungi yosholar erlangi kelajak egalari ekanligini unutishga haqqimiz yo'q.

Bahromjon RAHMONALIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Izlanish

OUYOSH PANELLARI – TEJAMKOR TEKNOLOGIYA

Yurtimizda sanoat ishlab chiqarishning barcha turi elektr energiyada ishlaysi. Bir lahzalik energiya ta'minotidagi uzilishlar iste'molchiligi talabi va ishlab chiqarish o'tasida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois elektr enerjiasidan samarali foydalanan, qayta tiklanuvchi muqobil energiya manbalari, ya'ni quyosh panellarni ishlab chiqarishi yo'lg'a qo'yish humkumatimizning doimiy diqqat markazida.

Prezidentimiz 2017-yil 13-iyundagi "Nukus shahrida elektroteknika mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etilgan edi. Yuqori va past kuchlanishni transformator podstansiyalar ishlab chiqarilgan mazkur korxonada endilikda zamonaviy energiya tejovchi uskulnari tayyorlash yo'lg'a qo'yilmoga.

– Korxonamiz birinchilardan bo'lib quyosh panellarni to'liq avtomatlashtirilgan tartibda ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi, – deydi "Nukuselektroapparat" MChJ qo'shma korxonasi bo'lim boshlig'i Alisher Seiton. – Bu hududa elektr energiyasi tanqisligining oldini olishga, qayta tiklanuvchi muqobil energiya ishlab chiqarishi kengaytirishga xizmat qiladi. Korxonaning 92 mld. so'm qiyatidagi ushu loyihasi ishga tushirilishi natijasida 35 ta ish o'rni yaratildi.

Korxonamizda 550 Vt quvvatga ega va umumiy o'lchamli 2272X1128X35 (mm) hamda umumiy yillik ishlab chiqarish quvvati 150 MVt bo'lgan monokristalli kremniy gofretlari asosida yuqori samarali quyosh panelnarini ishlab chiqarish yo'lg'a qo'yildi. Mahsulotlar tegishli muvoqaflik sertifikatiga ega bo'lib, milliy va xalqaro standartlarning barcha talabiga javob beradi. Mahsulotning mahalliy ishlab chiqarish quvvatini oshirish va narxlarini arzonlashtrish nuqtayi nazaridan o'z taklifimizni ishlab chiqib, tegishli tashkilotlarga taqdim qildik.

Mamlakatimizda yaqin yillarda quyosh panelnarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxona bo'lmagan. Nukus shahridagi mazkur qo'shma korxonaning yangi loyihasi ishga tushishi bilan hududa quyosh panelnari tannarxi arzonlashadi va transport xarajatlarining iqtisod bo'lishi evaziga aholiga yanada qulaylik yaratadi.

G'ayrat OTAJONOV
("Xalq so'zi").

"SOYA" DAN CHIQIB ISHLASH

"yashirin iqtisodiyot" ga barham berishning yagona yo'li

– Tumanimizda 500 ga yaqin katta-kichik issiqxonalar bor, – deb qoldi suhbatlarimizning birida romitanlik hamkasibimiz Mahfirat Atoyeva. – Issiqxonalar yushmanlari bilan, asosan, yollarib ishlovchi ayollar band. Chunki bunday ishlovchilarining mehnati arzon. Taassufki, "konvert" usulida ish haqi oluvchi bu ayollarning ish stajini yuritish, salomatligini tiklash, mehnat ta'tiliga chiqarish kabi masalalar muammo bo'lib turib.

Dolzarb mavzu

Mahfirat opaning kuyunchaklik bilan atygan bu gapi beixiyor G'ijduvonda yashovchi tanishlarimizdan birinining so'zini yodga tushirdi. Uning aytishicha, turmush o'rtoq'i 15 yilcha fermer xo'jaligida ishlagan.

– Nafaqaga chiqishiga ikki-uch yil muddat qolganida tasodifan xotinimming ismi-sharifi fermer xo'jaligi ishchilar ro'yxatida yo'qligini bilib qoldik, – deydi u. – Fermer unga ish haqini "vedomost" siz berib kelgan ekan.

Har bir kishi o'z haq-huquqini talab qilishi, "konvert" usulidagi maoshdan ziyon ko'rib qolish ehtimoli kattaligini bilishi kerak emasmi?

– Joylarda bo'lganimizda shu masalada ish beruvchilarining fikr-mulohazalarini bilan ko'p bor qiziqqanmiz, – deydi G'ijduvonda tumanni soliq inspeksiyasi boshlig'i orinbosari Jasur Tursunov. – Ularning bu borada o'z vajlari bor. Masalan, tamaddixonalarni olib ko'raylik. Oshxonaga u yoki bu kishini rasman ishga qabul qilish vaqtini ko'p oladigan jarayon sanaladi. Shu bois tadbirdor oson yo'lni tanlaydi. "Konvert" usulini qo'llaydi. Qolaversa, rasmiylashtirish yumushlari bitgunicha o'sha odamning ishidan bo'shab ketish holari ham uchraydi. Shu jarayon Davlat xizmatlari agentligi tizimi orqali qisqa muddat ichida, ortiqcha ovorqarchilikszayidan ro'yxatdan o'tkazish, faoliyatini moslashtirish, bino-inshootlarni ijara

ketar ekan, yaqinda respublika ishchi guruhining G'ijduvonda olib borgan o'rganishlari natijasini eslash foydadan xoli emas. Tahliilarning ko'rsatishicha, tumanda "yashirin iqtisodiyot" yalpi ishlab chiqarishning 14 – 17 foizini tashkil etgan.

Tuman soliq inspeksiyasi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarga qaraganda, birgina xizmatlar sohasida bu 668 mld. so'mga borib qoldi. Aniqlangan manbalarning 2024 holatida 23,8 mld. so'm mablag' qayta hisobga olingan. 987 holatda 14,7 mld. so'm miqdorida mablag'lar undirilgan. Birgina, "konvert" usulida ish haqi ishidan undirilgan mablag'lar undirilgan. Birgina, "konvert" usulida ish haqi ishidan undirilgan mablag' 1,5 mld. so'mni tashkil etgan. Shuningdek, joriy yilning besh oyida 498 ta korxonada 1073 nafar ishchi faoliyatiga legallashtirildi.

– Davlatimiz rahbari 31-may – 1-iyun kunlari viloyatimizga tashrifi chog'da G'ijduvonda ham bo'lib, tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yo'llarini belgilab berdi, – davom etadi J. Tursunov. – "Yashirin" sharoida ishlayotgan oilaviy tadbirdorlarni "soya" dan olib chiqish, ularning eman-erkin ishshashi, ish o'rnlari yaratishi uchun infrazitulmani rivojlanishiga zarurligiga e'tibor qaratdi. Biz shu vazifalardan kelib chiqqan holda "Yo'l xaritasi" asosida 7 ta yo'nalishda ish obib boryapmiz. Bular yakka tartibda ishlovchi tadbirdorlarning yigandigan ro'yxatdan o'tkazish, faoliyatini moslashtirish, bino-inshootlarni ijara

berish, tadbirkorlik subyektlarini AOS qat'iy rejimiga o'tkazish kabi yo'nalishlar shular jumlasidan. Birgina, norasmiy faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlarni legallashtirish hisobidan budgetga 950,4 min. so'm miqdorida qo'shimcha tushum ta'minlanadi.

Tuman to'rtinchini sektorini tomonidan "Mustaqil" va "Zarangari" mahalla rahbarlari yig'inlari namuna tariqasida tanlab olingan. Tahliillar ko'rsatidiki, mazkur ikki hududda ishlab chiqarish obyektlarini qurish va bo'sh binolarni lider tadbirdorlarga ijara asosida berish besh yuzdan ziyod yangi ish o'rnlari yaratish imkonini beradi. Bu borada muayyan tarjiba bor. Masalan, "Umidadon liboslar – 777" MChJ rahbari Faroh Matyoqubov unvanib suhbat bo'kazilganida, uxonadonida tikuvchilik yo'nalishida faoliyati olib borayotgani, mahsulotlarining bozori chaqqonligi, ammo sexni kengaytirish uchun bo'sh bino yo'qligini bildir. Shundan so'ng, mahallaning bo'sh turgan binosining 100 kvadrat metr qismi tadbirdorkorga tekin foydalish huquqi asosida berildi. Bankdan 100 mln. so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. Natijada, mahalladagi 30 nafar ishshizi xotin-qizning bandligi ta'minlandi.

"Soya" dan chiqqan bu kabi ishbilarmonlari ham tomonlama qo'llab-quvvatlash o'ziga qosib ishlashga e'tibor qaratdi. "Yashirin iqtisodiyot"ga barham berish ortidan davlatimiz rahbari alohida ta'kidlagandanidek, G'ijduvon tajribasi yuzaga keladi. Zero, aholisni tabiatan ishbilarmon sanalgan bu tumamlik imkoniyat va salohiyat benihoya katta.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

O'ZBEKİSTONLIK DİZAYNER TAYYORLAGAN LIBOSLAR

nufuzli moda haftaligida e'tirof etildi

Buyuk Britaniya poytaxti London shahrida "New Designers" xalqaro dizayn, to'qimachilik va moda ko'rgazmasi ochildi. Mazkur xalqaro ko'rgazma Buyuk Britaniyadagi nufuzli haftalik bo'lib, unda yangi dizaynerlarning moda, to'qimachilik, mebel sanoti, illyustratsiya va boshqa yo'nalishlardagi innovatsiya loyihibarlar hamda ishlanmalari taqdim etildi. Ko'rgazma 39 yillik tarix va tajribaga ega. Unga har yili 3 mingdan ortiq yosh dizayner va maxtakassular o'zlarining eng sara loyihibarini keng jamoatlikka taqdim qiladi.

Aytish mumkinki, tadbir sohaning yosh vakillari uchun amaliyatiga va quylay platforma hisoblanadi.

Mazkur ko'rgazmada hamyurtimiz, Kolchester universiteti markazi tadqiqotchisi Zumrad Hamidova o'zining "Eco Couture" nomli asarlar to'plami bilan istirok etdi. Va u dizayn yo'nalishida "Sanderson" mukofoti Buyuk Britaniyaning "Sanderson Design Group" kompaniyasi tomonidan ta'sis qilingan bo'lib, uning doirasida g'olibga mazkur tashkilotda 12 oy davomida imkoniyati beriladi.

Zumrad Hamidova kolleksiysida turli texnikalardan, jumladan, qo'lla gul solish, raqamli bosib chiqarish, milliy kashta chizgilari va ekologik toza matolardan keng foydalanan.

"New Designers" xalqaro dizayn, to'qimachilik va moda ko'rgazmasi 6-iyulgacha davom etadi.

Yurtimizning sayyohlik salohiyati dungs o'tborida

Mamlakatimizning Rossiya shahrida "Russian Traveler" nashri bilan birgalikda mazkur jurnalning O'zbekistonning boy madanly merosi va sayyohlik salohiyatiga bag'ishlangan maxsus soni chop etildi.


"O'zbekiston – Sharq ertagi" nomli ushu mamlakatimizda sayohat qilish qoidalari, noyob turistik va madanly yo'nalishlar, yurtimizning gastronomik turizmi va boshqa ma'lumotlar mushtariylar hukmiga havola etilgan. O'zbekistonning barcha viloyat va shaharlariga tashrif buyurishning afzalliklari aniq misollar bilan olib chiqilgan, shuningdek, o'zbek xalqining boy madanlyati, an'analari, taomlari va mehmono'stligiga urg'u qaratilgan.

Nashra qadimiy Buyuk Ipak yo'lli kesib o'tgan shaharlarimiz to'g'risidagi xarita ham chop etilgan. Bu shaharlar chinakam madanlyat chorrashi vazifasini otagan.